

**MEDICAL PLANT – ALTHAE OFFICINALIS**

Usmonova Gulshod Ibrohimovna Teacher of Bukhara State University

usmonovagulshod@gmail.com

Adizov Rahimkulkhan Azimovich. Student of Bukhara State University,

Uzbekistan rahimqulkhonadizov@gmail.com

Son of **Toymurad Ravshanov Khamrokul.** Student of Bukhara State

University, Uzbekistan hamroqulravshanov625@gmail.com

*Annotation: The article provides valuable information about the systematics, botanical classification, geographical distribution, and cultivation of *Althae officinalis*. Also, opinions about its chemical composition, specific medicinal properties, and its use in folk medicine are scientifically substantiated. The growth of medicinal sunflower in different ecological environments, that is, in the light or in the shade, the influence of temperature, humidity, wind and soil fertility on its growth was studied.*

Keywords: lanceolate, asparagine, uronic acid, extract, marshmallow, betaine, phylogenetic

ЛЕКАРСТВЕННОЕ РАСТЕНИЕ – ALTHAE OFFICINALIS

Аннотация: В статье приведены ценные сведения о систематике, ботанической классификации, географическом распространении и выращивании алтей лекарственной. Также научно обоснованы мнения о его химическом составе, специфических лечебных свойствах и применении в народной медицине. Изучен рост лекарственного подсолнечника в различных экологических средах, то есть на свету или в тени, влияние температуры, влажности, ветра и плодородия почвы на его рост.

Ключевые слова: ланцетник, аспарагин, уроновая кислота, экстракт, алтей, бетаин, филогенетический.

DORIVOR GULXAYRI – ALTHAE OFFICINALIS



Annotatsiya: Maqolada Dorivor gulxayri – *Althae officinalis* o'simligining sistematikasi, botanik tasnifi, geografik tarqalishi, o'stirilishi haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, kimyoviy tarkibi, o'ziga xos dorivorlik xususiyatlari va xalq tabobatida ishlatilishi haqidagi fikrlar ilmiy asoslab berilgan. Dorivor gulxayrining turli ekologik muhitlarda ya'ni, yorug'likda yoki soyada o'sishi, uning o'sishiga harorat, namlik, shamol ta'siri va tuproq unumdorligining ta'siri o'rganildi.

Kalit so'zlar: lansetsimon, asparagin, uron kislotalar, ekstrakt, zefir, betain, filogenetik

KIRISH: Ma'lumki, hozirgi vaqtda tibbiyotda qo'llaniladigan dori-darmon vositalarining 60 % dan ko'proq qismi dorivor o'simliklardan tayyorlanadi. Jahonda dorivor o'simliklarning tibbiyotda va xalq tabobatida ishlatilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil etib tartibga solish, yangidan yangi biologik faol moddalarni kashf etish, ta'sir quvvati kuchli bo'lgan, inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan dori-darmonlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda ulardan foydalanish zamon talabidir. Dorivor o'simliklarni qidirib topish va o'rganish ishi hozir ham keng ko'lamda olib borilmoqda. Yangi dorivor o'simliklarni topishda xalq tabobatida ishlatiladigan dorivor mahsulotlarni o'rganish, o'simliklarni filogenetik qardoshligidan foydalanish bilan bir qatorda ma'lum tuman florasini yalpi kimyoviy analiz qilish katta ahamiyatga ega. Shuni ta'kidlash lozimki, tabiiy holda o'suvchi dorivor o'simliklar zaxiralarining chegaralanganligi tufayli farmatsevtika sanoati korxonalarining dorivor o'simliklar xom-ashyosiga bo'lgan talabini, asosan, dorivor o'simliklar o'stirish orqaligina qondirish mumkin. Jumladan, mamlakatimizda ham dorivor o'simliklarni o'rganish borasida bir necha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shular qatorida Dorivor gulxayri – *Althae officinalis* ham juda katta ahamiyatga ega.

Dorivor o'simlik - *Althae officinalis*ni o'stirishda abiotik omillarning ta'siri o'rganib chiqildi va dorivorlik xususiyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqot metodi va metodologiyasi (Research method and methodology)



Althaea officinalis, odatda botqoq gulxayrisi deb ataladi, Yevropa va Shimoliy Afrikadagi ariqlar, soy bo'ylari, sho'r botqoq yerlar, botqoq chetlari va boshqa nam hududlarda yashaydigan ko'p yillik o't o'simlik. *Althaea officinalis*, dorivor o'simlik bo'lib, — Yevropa, G'arbiy Osiyo va Shimoliy Afrikaga xos bo'lgan gulli o'simlik turidir. O'simlikshunoslikda va manzarali o'simlik sifatida ham shlatiladi. Qadimgi Misr davridan beri ildizidan tayyorlangan qandolat bugungi zefir taomiga aylangan.

Jumladan, O'zbekistonda O'.Pratov, Shamsullayeva, E.Sulaymonovlarning adabiyotlarida gulxayri (*Althaea*) gulxayridoshlarga mansub bir yillik va ko'p yillik o'tlar turkumiga kirishi, Yevropa va Osiyoning o'rta mintaqalarida 12 ta turi o'sishi, O'zbekistonda gulxayrining 7 ta yovvoyi turi borligi haqida ma'lumotlar bergan.

O'simlik sistematikasi:

O'simliklar dunyosi-Flora-Plantae

Bo'lim-Angiospermae (yopiq urug'lilar)

Sinf-Dicotyledones (ikki urug'pallalilar)

Oila-Malvaceae

Turkum-*Althaea*

Tur - *Althaea officinales*

Gulxayri - gulxayridoshlarga mansub bir yillik va ko'p yillik o'tlar turkumi. Yevropa va Osiyoning o'rta mintaqalarida 12 ta turi o'sadi. O'zbekistonda gulxayrining bitta ekma va 7 ta yovvoyi turi bor. Gulxayridoshlar to'qaylarda sug'oriladigan yerlarda o'sadi. Gullari to'g'ri 5 bo'lakli ikki jinsli. Gulxayrining guli, dorivor manzarali o'simlik, undan bo'yoq ham olinadi. Dorivor gulxayri dasht zonalarida hamda O'rta Osiyo va Kavkazning ayrim hududlarida tarqalgan. Daryo va ko'llar sohilidagi to'qaylarda sernam yerlarda o'sadi. Dorivor gulxayri Gulxayri turkumiga oid bo'yi 70-150 sm keladigan ko'p yillik o't. Ildizidan tayyorlangan damlama ilmiy tabobatda yo'talga qarshi ishlatiladi.

Poya, shox va bargi sertuk bo'lganidan kulrang-yashil tusda ko'rinadi. Gullari barg qo'ltig'iga, poya va shoxlar uchiga joylashgan. Gulkosachasi ikki qavatli. Pastki kosacha 8-12 bo'lakka ajralgan, ustki kosachasi esa besh bo'lakli.



Kosacha barglari meva bilan qoladi. Tojbargi 5 ta bo‘lib, pushti rangda, otaligi (changchi) ko‘p sonli. Ular ipi bilan birlashib, naycha hosil qiladi. Onalik (urug‘chi) tuguni 15-25 xonali, yuqoriga joylashgan. Mevasi – yassi, yumaloq, serurug‘li, quruq meva. Iyun oyidan sentabrgacha gullaydi, mevasi iyuldan boshlab yetiladi. Geografik tarqalishi: Ariq, ko‘l bo‘ylarida, o‘tloq, to‘qay, butalar orasida va boshqa nam yerlarda o‘sadi. Moldova, Ukraina, Belarus, Rossiyaning Yevropa qismining o‘rmon-cho‘l zonasida va Qrim, Kavkaz, G‘arbiy Sibir, Qozog‘iston hamda O‘rta Osiyoda uchraydi. Xususan, O‘zbekistonda ham to‘qaylarda va sug‘oriladigan yerlarda uchrashini aniqlangan. Kimyoviy tarkibi: Ildiz tarkibida 11 % gacha shilliq moddalar, 37 % kraxmal, 2 % gacha L-asparagin, 4 % betain, 10.2 % saxaroza va 1.7 % gacha moy, pektin, uron kislotalar va boshqa birikmalar uchraydi.

Tadqiqot natijasi va muhokama (Research result and discussion)

Ilmiy izlanishlar natijasida dorivor gulxayri asosan, havoning quruq sharoitida va tuproqning qisqa muddatli qurishiga bardosh berishi aniqlandi. Bu esa ildiz tarmoqlari yaxshi rivojlanganligi va tuproqdagi suv va unda erigan mineral moddalarni yaxshi o‘zlashtirib olishidan dalolat beradi. Shuningdek, shamol va qishning sovuqligiga chidamli o‘simlik ekanligi kuzatildi. Gulxayri quyoshsevar va issiqlikka talabchan emas, balki o‘rtacha yorug‘lik va haroratda o‘stiriladi.

Ishlatilishi: Gulxayri ildizining preparatlari o‘rab oluvchi, balg‘am ko‘chiruvchi hamda yallig‘lanishga qarshi (ayniqsa, bolalarning nafas yo‘llari kasallanganda) dori sifatida ishlatiladi. Dorivor preparatlari: Qaynatma, quruq ekstrakt, kukun (poroshok), sharbat. Kubik shaklida qirqilgan ildiz nafas olish yo‘llari kasalliklarida ishlatiladi.

Qaynatma ildizdan faqat sovuq suvda tayyorlanadi (mahsulotdan shilliq modda ajralib chiqadi, kraxmal suvda erimasligi sababli qaynatmaga o‘tmaydi).

Dorivor gulxayri o‘simligining yer ustki qismidan ajratib olingan uglevodlar aralashmasidan “mukaltin” nomli dorivor preparat olinadi. “Mukaltin” preparatini balg‘am ko‘chiruvchi dori sifatida yuqori nafas yo‘llari va o‘pka yallig‘lanishi kasalliklarida ishlatiladi. Uy sharoitida quyidagicha damlama tayyorlash mumkin:



1) Biror idishga ikki stakan qaynatilgan suv quyiladi va uning ustiga to‘rt choy qoshiq maydalangan ildiz solinib, sakkiz soat damga qo‘yiladi.

2) Tayyor bo‘lgan damlamani kuniga 3-4 marta yarim stakandan ichiladi.

Bu o‘simlikning organizmga foydasi har tomonlama ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini yana bir bor guvohi bo‘ldik.

Xulosa (conclusion)

Dorivor gulxayri Malvaceae oilasiga mansub, ko‘p yillik dorivor o‘t osimlik sanaladi. Ilmiy izlanishlar va tajribalardan shu ma‘lum bo‘ldiki, jumladan, dorivor gulxayri sho‘rlangan tuproqlarda ham o‘shini kuzatdik. Buxoro vohasi tuproqlari sho‘rlanganligi sababli, o‘simlik hosili birmuncha kamroq olindi. Shuningdek, shamolga va qishning sovuqligiga chidamli ekan. Yorug‘sevar o‘simlik hisoblanadi. Soyani ko‘p ham xushlamaydi. O‘g‘itlar talab qilishiga keladigan bo‘lsak, ayniqsa, azotli va fosforli o‘g‘itlarga talabchan hisoblanadi. Namlik ortiqcha bo‘lsa tuproqda havo almashinuvi yomonlashuvi natijasida o‘simlikka ham yomon ta‘sir qiladi. Gulxayrida ham namlik miqdorini inobatga olish kerak.

Dorivorlik xususiyatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, nafas yo‘llari bilan bog‘liq kasalliklarda keng ishlatiladi va asosan balg‘am ajratuvchi hamda davolovchi xususiyatiga ega.

Umuman olganda, hozirgi kunda dorivor gulxayridan farmatsevtika va tibbiyotning boshqa yo‘nalishlarida keng foydalanilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘. Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yulchiyeva, D.Mustafakulov. Dorivor o‘simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya – Toshkent, 2018. 197-198- betlar
2. Xolmatov X.X, Habibov. O‘zbekiston dorivor o‘simliklari – Toshkent, 1971.
3. O‘.Pratov, Shamsullayeva, E. Sullaymonov “Botanika” Toshkent 2010
4. A.E.Xolliyev, S.B.Bo‘riyev, U.T.Norboyeva – O‘simliklarda suv almashinuvi. Buxoro, 2006. 70-bet



5 Ibrohimovna U. G., Fatullayevna K. L. MEDICINAL PLANT-ALOE VERA (ALOE BARBAODENSIS) //British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. – 2024. – T. 26. – C. 74-77.

6. Usmonova G., Ochilova G. MEDICINAL PLANT-MOUNTAIN BASIN (ORIGANUM VULGARE) //International Scientific and Current Research Conferences. – 2021. – C. 06-09.

7. Usmonova G. I., Ochilova G. A. TUPROQNING BIOLOGIK FAOLLIGIDA MIKROORGANIZMLAR ROLI //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 63-67.

Web site

1. <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC3329344/>
2. <https://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/433>
3. https://en.wikipedia.org/wiki/Althaea_officinalis